



“TERMINOLOGIYA VA DIALEKTOLOGIYANING ZAMONAVIY MASALALARI”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari



“TERMINOLOGIYA VA DIALEKTOLOGIYANING ZAMONAVIY MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
anjumani materiallari





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI
O‘ZBEK SHEVASHUNOSLIGI MARKAZI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA
OSHIRISH MARKAZI SAMARQAND VILOYATI HUDUDIY
BO‘LINMASI

“TERMINOLOGIYA VA DIALEKTOLOGIYANING
ZAMONAVIY MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

T 37

Terminologiya va dialektologiyaning zamonaviy masalalari
[Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
– 370 b.

Mazkur to‘plam “Terminologiya va dialektologiyaning zamonaviy masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari, tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrilar va talabalarga mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrirlar:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O.Jamoldinova, pedagogika fanlari doktori, professor

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori

M.Umirzoqova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

N.Ahmedova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

U.Rahimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

S.Ahmedov, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

© **Davlat tilida ish yuritish asoslarini
o‘qitish va malaka oshirish markazi**

ISBN 978-9910-9899-9-5

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2023.**

7. Ғоли Олим. Ўзбек лаҳжаларини таснифда бир тажриба.
–Тошкент: Ўздавнашр, 1935. – 68 б.

Iqon shevasida o'tgan zamon fe'l shakllarining o'ziga xos xususiyatlari

Xidraliyeva Zoxira,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
katta o'qituvchisi, f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya. Maqolada Janubiy Qozog'istonning shimoliy o'zbek guruhi shevalaridan biri Iqon shevasida o'tgan zamon fe'lini hosil qiluvchi grammatik shakllarning o'ziga xos xususiyatlari haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: adabiy til, sheva, lahja, fe'l, grammatik shakl, zamon kategoriyasi, tuslanish, sintetik shakl, analitik shakl.

O'zbek xalq shevalarida ham fe'llar adabiy tildagi umumiyliklardan tashqari, o'ziga xos xarakterli xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu farqlar, ayniqsa, fe'l zamonlarini hosil qiluvchi grammatik shakllarning nutq jarayoni bilan bog'liq ravishda turli variantlarda namoyon bo'lishi bilan yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, o'tgan zamon shakllarini ifoda qilishda **-di** (arxivariant) va sifatdosh affikslari hamda analitik shakldagi formantlar ishtirok etadi.

O'tgan zamon fe'lining **-di** affiksli shaklining adabiy tildan farqli jihati shevada singarmonizm qonuni amalda bo'lganligi sababli, **-di**, **-dī**, **-ti**, **-tī** kabi fonetik variantlarining mavjudligidir. Bu jihatdan singarmonizmni saqlagan boshqa shevalar bilan umumiylikka egaligi ko'rinib turibdi. Masalan, oldim ~ *a:dim*, kirding ~ *kirdiŋ*, bordi ~ *ba:rdī*, aytdim ~ *e:ttim*, eshitding ~ *ä:šittiŋ*, yopdi ~ *ja:ptī*.

	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>kä:di-m ~ keldim</i>	<i>kä:di-k ~ keldik</i>
II shaxs	<i>kä:di-ŋ ~ kelding</i>	<i>kä:di-ŋnär ~ keldingiz</i>
III shaxs	<i>kä:di ~ keldi</i>	<i>kä:di-lär ~ keldinglar</i>

Tuslanishga ayrim izohlar beramiz. II shaxs ko'plik ma'nosini ifodalashda ko'plik affiksining **-när** // *nar* variantiga **ŋ** sonor undoshining qatnashishi bilan izohlanadi.

-*ñiz*^s // *ñiz*^s affiksi II shaxs birligida hurmat ma'nosini ifodalaydi: Siz *kä:di-ñis* // *išti-ñis* // *qīdi-ñis* tarzida qo'llanadi. Namuncha erta turdingiz ~ *Šu:nča e:r turdiñis*. II shaxsda ko'plik ma'nosini ifodalash uchun -*ñ* affiksidan so'ng -*när*, -*nar* affiksi qo'shiladi: *Sillär kä:diñnär* // *ištiñnär* // *qīdiñnar* tarzida ifodalanadi. Hurmat ma'nosini ifodalashda ham shu shakldan foydalaniladi: Qachon keldingizlar ~ *Qačan kä:di-ñnär?* Qizko'rdiga bordingizlarmi? ~ *Qī:z kö:rdigä ba:rdiñnar-na?*

III shaxs ko'plikda -*lär* // *lar* affiksining qo'llanishi xarakterli, ya'ni affiksli fe'l shaklida hurmat ma'nosi ifoda qilinmaydi, balki Iqon shevasining tuslanishdagi o'ziga xosligini ta'minlaydi. Ular borishdi – *ulallar bardī*. Ular qaytishdimi? ~ *Ular qa:jttina?*

-*gän* // *kän* // *yan* // *qan* affiksli shakl. Ularning qanday fe'l asoslariga qo'shilishi adabiyotlarda aytilgan qoidalarga mos keladi [2, 54].

-*gän* // *kän* varianti qatnashgan fe'lning bo'lishli shaklda tuslanishi:

No	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>kä:gämmä ~ kelganman</i>	<i>kä:gämmiz^s ~ kelganmiz</i>
II shaxs	<i>kä:gänsä ~ kelgansan</i>	<i>kä:gänsilär ~ kelgansiz</i>
III shaxs	<i>kä:gän ~ kelgan</i>	<i>kä:gän ~ kelganlar</i>

-*gän* varianti qatnashgan fe'lning bo'lishsiz shaklda tuslanishi:

No	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>be:mägämmä~ bermaganman</i>	<i>be:mägämmis~ bermaganmiz</i>
II shaxs	<i>be:mägänsä~ bermagansan</i>	<i>be:mägänsis ~ bermagansiz</i>
III shaxs	<i>be:mägän~ bermagan</i>	<i>be:mägän~ bermaganlar</i>

Yuqoridagi tuslanishdan ko'rinib turibdiki, I va II shaxs birligida -*män*, -*sän* affiksidagi *n* undoshining affiks tarkibida o'rni yo'q. Bu jihatdan Turkiston qarluq va Xorazm o'g'uz shevalari bilan umumiylikka ega [6, 228]. Aftidan, bu xususiyat bir qator o'zbek shevalariga xos [4, 115].

-*gän* // *kän* varianti ishtirok etgan fe'lning uzoq o'tgan zamon bo'lishsiz shaklida sintetiklashish hodisasi yuz beradi, ya'ni bu shakl "so'z asosi + *gan* + to'liqsiz fe'l + shaxs-son affiksi" dan iborat bo'ladi, masalan, *kä:gänämäsmä* shaklini tahlil qiladigan bo'lsak, adabiy tilda *kel* + *gan* + *emas* + *man* kabi tarkibdan iborat bo'ladi. Tuslanishi:

№	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	<i>kä:gänämäsmä</i>	<i>kä:gänämäsmis</i>
II shaxs	<i>kä:gänämässä</i>	<i>kä:gänämässilär</i>
III shaxs	<i>kä:gänämäs</i>	<i>kä:gänämäs</i>

O‘tgan zamon fe’lining yana bir sintetiklashgan shakli “so‘z asosi + *gän* + *yo‘q modal so‘zi* + *shaxs-son affiksi*” dan iborat bo‘ladi va unda singarmonizm buziladi, Y.D.Polivanov termini bilan aytganda “sinish (ломанные слова)”[5, 518] yuz bergan:

№	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	<i>bilgäjo:qma</i>	<i>bilgäjo:qmīs</i>
II shaxs	<i>bilgäjo:qsa</i>	<i>bilgäjo:qsilar</i>
III shaxs	<i>bilgäjo:q</i>	<i>bilgäjo:q</i>

Bu tuslanishning *bilgä(n)* qismida old qator, *jo:qma* qismida orqa qator unlilar uyushgan va ular o‘zaro zidlangan, lekin u nutq jarayoniga xalal bermaydi. Tuslanishi:

№	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	<i>ko‘rganim yo‘q ~ kö:rgäjo:qma</i>	<i>ko‘rganimiz yo‘q ~ kö:rgäjo:qmīs</i>
II shaxs	<i>ko‘rganing yo‘q ~ kö:rgäjo:qsa</i>	<i>ko‘rganingiz yo‘q ~ kö:rgäjo:qsīs</i>
III shaxs	<i>ko‘rgani yo‘q ~ kö:rgäjo:q</i>	<i>ko‘rgani yo‘q ~ kö:rgäjo:q</i>

Yuqoridagi tuslanishlardan ko‘rinib turibdiki, shevadagi *kö:rgäjo:qma* tipidagi murakkab fe’l shakli adabiy tildagi *ko‘rganim yo‘q* tipidagi fe’l shaklini almashtiradi. Muhimi, bu qo‘llanishda *yo‘q* modal so‘zi shevadagi fe’l shakliga sintezlashib ketadi. Buni shu so‘z ishtirokidagi tuslanishda tuslovchi affikslarning *yo‘q* so‘ziga qo‘shilishi asos bo‘ladi. Bu faqat Iqon va Turkiston qarluq, qipchoq shevalarigagina xosdir. Bizningcha, u qozoq tilining ta’siridir, chunki qozoq tili uchun *baryanžoqpın* shakli xarakterlidir [3, 73].

-*yan* // *qan* affiksi. Uning qanday asoslarga qo‘shilishi darsliklardan ma’lum [1, 179]. Tuslanishi:

№	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	<i>qo:jyamma, jo:liqqamma</i>	<i>qo:jyammīs, jo:liqqammīs</i>
II shaxs	<i>qo:jyansa, jo:liqqansa</i>	<i>qo:jyansilar, jo:liqqansilar</i>
III shaxs	<i>qo:jyan, jo:liqqan</i>	<i>qo:jyan, jo:liqqan</i>

Bu fe'lining sintetiklashgan shaklida singarmonizm buzilmaydi:

№	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>ta:pqajo:qma,</i> <i>čiqqa:jo:qma</i>	<i>tapqajo:qmīs, čiqqa:jo:qmīs</i>
II shaxs	<i>ta:pqajo:qsa,</i> <i>čiqqa:jo:qsa</i>	<i>tapqajo:qsilar, čiqqa:jo:qsilar</i>
III shaxs	<i>ta:pqajo:q, čiqqa:jo:q</i>	<i>tapqajo:q, čiqqa:jo:q</i>

Ko'rinadiki, bunday tuslanishda bo'lishsiz shaklida *-ma*, *-mä* affiksining qatnashish imkoniyati yo'q. Qolaversa, adabiy tildagi *ko'rganim* yo'q va *ko'rmaganman* tipidagi fe'l shakllarining bo'lishsiz shakli ayni bir xil bo'ladi, ya'ni *kö:rgäjo:qma* shakli har ikkalasiga umumiydir.

O'tgan zamon fe'lining analitik shakllari. *-gan* edi ~ *gäni:di*, *-käni:di*, *-qani:di*, *-yani:di*. Shevada ushbu shakl *-gän* sifatdashiga (edi) *i:di* to'liqsiz fe'li hamda shaxs-son affikslarini qo'shish orqali hosil qilinadi: Mashina olgan edim, shunga hammasini aylantirib keldim ~ *Mäši:nä a(l):yani:dīm*, *šuna bä:rini a:jlantirip kä:dim*. Sizlardan avval kelgan edik ~ *Sillärdin sä:l a:ldin kä:gäni:dik*. To'yga bir oy avval aytgan edi ~ *To:jya bi a:j a:ldin e:tkäni:di*.

O'tgan zamon fe'lining -gänidi shakli o'zbek tilining Toshkent, Andijon kabi qator shevalarida kuzatiladi [8, 127], lekin Iqon shevasida *edi* to'liqsiz fe'li o'ziga xos fonetik xususiyat kasb etadi va *i:di* tarzida cho'ziq talaffuz etiladi.

-gan ekan ~ *gän(-kän, -qan, -yan)* affiksi + *ekan* to'liqsiz fe'li + shaxs-son affikslarini qo'shish orqali ham o'tgan zamon fe'li hosil qilinadi va bunda to'liqsiz fe'l singarmonizmga bo'ysunmaydi:

№	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>kö:rgänä:kämä –</i> <i>kö:rmägänäkämmä</i> <i>tö:kkänä:kämä –</i> <i>tö:kmägänäkämmä</i> <i>qo:jyanä:kämä –</i> <i>qo:jmayanäkämmä</i> <i>qo:rqqanä:kämä-</i> <i>qo:rqmayanäkämmä</i>	<i>kö:rgänä:kämis</i> <i>kö:rmägänä:kämis</i> <i>tö:kkänä:kämis</i> <i>tö:kmägänä:kämis</i> <i>qo:jyanä:kämis</i> <i>qo:jmayanä:kämis</i> <i>qo:rqqanä:kämis</i> <i>qo:rqmayanä:kämis</i>

II shaxs	<i>kö:rgänäkäsä</i>	–	<i>kö:rgänä:käsilär</i>	–
	<i>kö:rmägänä:käsä</i>		<i>kö:rmägänä:käsilär</i>	
	<i>tö:kkänäkäsä</i>	–	<i>tö:kkänä:käsilär</i>	–
	<i>tö:kmägänä:käsä</i>		<i>tö:kmägänä:käsilär</i>	
	<i>qo:jyanäkäsä</i>	–	<i>qo:jyanä:käsilär</i>	–
	<i>qo:jmayanä:käsä</i>		<i>qo:jyan:äkäsilär</i>	
	<i>qo:rqqanäkäsä</i>		<i>qo:rqqanä:käsilär</i>	–
	– <i>qo:rqqmayanä:käsä</i>		<i>qo:rqqanä:käsilär</i>	
III shaxs	<i>kö:rgänäkä</i>	–	<i>kö:rgänä:kä – kö:rmägänä:kä</i>	
	<i>kö:rmägänä:kä</i>		<i>tö:kkänä:kä – tö:kmägänä:kä</i>	
	<i>tö:kkänäkä</i>	–	<i>qo:jyanä:kä – qo:jmayan:äkä</i>	
	<i>tö:kmägänä:kä</i>		<i>qo:rqqanä:kä</i>	–
	<i>qo:jyanäkä</i>	–	<i>qo:rqqmayanä:kä</i>	
	<i>qo:jmayanä:kä</i>			
	<i>qo:rqqanä:kä</i>	–		
	<i>qo:rqqmayanä:kä</i>			

Adabiy tildagi o‘tgan zamon fe’lining *-b // ib affiksli ravishdosh + edi* to‘liqsiz fe’li orqali hosil qilinadigan shakli Iqon shevasida amalda yo‘q. Shu shakl ma’nosiga “*fe’l asosi -di + i:di*” tipidagi analitik shakli mos keladi va u so‘z asosi bilan singarmonistik munosabatga kirishadi. Qiyoslang: borib edim – *bardi:dīm*.

Tuslanishi:

(Old qator unlilar uyushgan)

	Birlik	Ko‘plik
I	<i>je:di:dim, kö:rdi:dim</i>	<i>je:di:dik, kö:rdi:dik</i>
II	<i>je:di:diñ, je:di:diñis, kö:rdi:diñ, kö:rdi:diñis</i>	<i>(Sillär) kö:rdi:diñnär</i>
III	<i>je:di:di, kördi:di</i>	<i>(Ular) je:di:di, kördi:di</i>

Uni adabiy tildagi shakli bilan qiyoslash mumkin:
(orqa qator unlilar uyushgan)

Adabiy til

Iqon

<i>boruvdim</i>	<i>boruvdik</i>	<i>ba:rdi:dim</i>	<i>ba:rdi:diq</i>
<i>boruvdiñ</i>	<i>boruvdiñiz</i>	<i>ba:rdi:diñ</i>	<i>ba:rdi:diñnar</i>
<i>boruvdi</i>	<i>boruvdilar</i>	<i>ba:rdi:di</i>	<i>ba:rdi:di</i>

Q. Muhammadjonov Turkiston guruh o‘g‘uz shevalarida ham *-b(-ib)+edi* shaklining Turkiston shahar va atrof qishloq shevalari kabi **b**

saqlangan holda talaffuz etilishi, lekin edi ~ *i:di* tarzida cho‘ziq talaffuz etilishini qayd etadi va namunalar keltiradi: *kōribi:dim*, *kōribi:diñ*, *kōribi:di*, *kōribi:dük*, *kōribi:diñnär*, *kōribi:di* [4, 122]. Q. Muhammadjonov tomonidan keltirilgan ushbu misollar Turkistonning qipchoqlashgan Suvnoq, Cho‘rnoq shevalarida qo‘llanadi, lekin uni Turkiston shevasining xususiyati sifatida qarash mumkin emas. Iqon shevasida *ba:rdi:dim* tipidagi tuslanish ma‘nosi Turkiston shevasida *baryani:dim* shakli bilan ifoda qilinadi. Shu tufayli Q. Muhammadjonovning ma‘lumotlarini qabul qilish mumkin emas. Iqon shevasida ham Qorabuloq shevasi kabi ravishdoshning *-b (-ib)* + *edi* to‘liqsiz fe‘li orqali anglatiladigan o‘tgan zamon fe‘l ma‘nosi *-di* + *edi* fe‘l shakli orqali qo‘llanadi. Shevadagi mazkur fe‘lning *-di* + *edi* analitik shakli o‘zbek tilida XV asrga qadar qo‘llangan va qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo‘lgan [1, 245].

-gan edi ~ *gāni:di* va *-di* + *edi* ~ *di:di* shakllarining har ikkalasi ham o‘tgan zamondagi voqea-hodisani yoki ish-harakatni yodga olish va ta’kidlab ko‘rsatish ma‘nosini ifodalaydi. Masalan, *Rāhmätlik ta:γamni a:xiryi mä:rtä xa:lamiñkidä kördi:dim* (ko‘rgan edim). *Šundaq o:lišini bildi:dik* (bilgan edik). Qavs ichidagi shakl Iqon shevasida Turkiston shevasining ta’sirida paydo bo‘lgan.

Shevada *-b (-ib)* ravishdoshi + *yubor* yordamchi fe‘li orqali *-di* + shaxs-son affikslari yordamida ham o‘tgan zamon fe‘li hosil qilinadi. Fe‘lning ushbu shakli adabiy til va Toshkent, Andijon kabi qator shevalarda *ketvārdim*, *ketvārdiñ*, *ketvārdi* tarzida ifodalanadi. Iqon shevasida esa: *kijdirmoq fe‘lini* tuslasak: *kä:jdiribä:rdim*, *kä:jdiribä:rdiñ*, *kä:jdiribä:rdi*; *kä:jdiribä:rdik*, *kä:jdiribä:rdiñnär*, *kä:jdiribä:rdi*;

Orqa qator unli bo‘lgan fe‘llarda ham to‘liqsiz fe‘l qismi singarmonizmga bo‘ysunmaydi, faqat asosdan keyingi unlida orqa qator unli o‘z o‘rnini saqlab qoladi: *a:qqizibä:rdim*, *a:qqizibä:rdiñ*, *a:qqizibä:rdi*; *a:qqizibä:rdik*, *a:qqizibä:rdiñnär*, *a:qqizibä:rdi*.

Ishi qiyin ekan, chiday olmay ketib yubordim ~ *I:ši qī:jīnäkä, čidaja:mmaj ke:dibä:rdim*. Nabiralarimni ham onasiga qo‘shib berib yubordim ~ *Näbärälärimnijäm a:jasīya qo:šip be:bä:rdim*. Bu tuslanishda **b** undoshi kutilgan spirantizatsiyaga uchramaydi.

-b ravishdosh affiksli shakl. Shevada bu shakl *-p // ip // ip* variantlarida qo‘llanadi va ular adabiy tildagi *boribman* tipidagi shaklga mos keladi va ish-harakat, voqea-hodisani hikoya qilish hamda undan

taajjublanish, ta'kidlash ma'nolarini anglatadi: *Xa:bar ke:š kăp, hă:mmădin a:xir ba:rîpma.*

-r affiksli shakl. O'tgan zamon fe'lining *-r, -är, -ar* shakli Iqon shevasiga xos emas (lekin O'zbekistonda ta'lim olib kelgan ba'zi shaxslar nutqida uchrab qoladi). Bu shaklning Iqon shevasida mazmun ekvivalenti *-s // as // äs + i:di* formantli shakli qo'llanishi xarakterlidir. Uning faqat bo'lishli shakli qo'llanadi:

No	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>ba:rasi:dim</i>	<i>ba:rasi:dîq</i>
II shaxs	<i>ba:rasi:dîñ</i>	<i>ba:rasi:dîñnar</i>
III shaxs	<i>ba:rasi:dî</i>	<i>ba:rasi:dî</i>

Qu:mri xa:lamîñ ba:yîda rasa: qarašö:rik, sara:lî ta:l o:lasi:dî. Qi:šta tä:pägä čiqîp, to:ñîp qa:yučaj si:jpančiq o:jnasi:dîq.

Shu shaklda ifodalangan ma'noning bo'lishsiz shakli esa *-mä:j* affiksi *+do:n+i:jdi* formantli shakl bilan ifoda qilinadi. Tuslanishi:

No	Birlik	Ko'plik
I shaxs	<i>barma:jdo:nî:jdim, kămä:jdo:ni:jdim</i>	<i>barma:jdo:nî:jdiq, kămä:jdo:ni:jdiq</i>
II shaxs	<i>barma:jdo:nî:jdiñ, kămä:jdo:ni:jdiñis</i>	<i>barma:jdo:nî:jdiñnar, kămä:jdo:ni:jdiñnar</i>
III shaxs	<i>barma:jdo:nî:ydi kăm:äjdo:ni:jdi</i>	<i>barma:jdo:nî:dî // lar kămä:jdo:ni:jdi // lăr</i>

Gülmi:zä ota:qqa čiqma:jdo:ni:di biraq uña he:š kim i:ndämäjdo:ni:di. Ta:jîr, sän qitmîrliq qîp, A:nargül to:tiña dă:rs ö:tkizmäjdo:ni:dîñ.

Bu tuslanishda ham singarmonizm qonuniyati buziladi. Bu yuqoridagi tuslanishdan ko'rinib turibdi: *ö:tkizmä:jdo:ni:jdi*. Shevada ushbu shakl ish-harakatning o'tgan zamonda ma'lum bir vaqt davom etganligi va hozirda to'xtaganligini anglatadi.

Xulosa shuki, Iqon shevasida o'tgan zamon fe'liga xos rang-barang grammatik shakllarning qo'llanishi shevaning tarixiy rivojlanish jarayonlari bilan xarakterlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 179;

2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 54.
3. Ысқақов А. Қазіргі қазақ тілі. – Алматы: Ана тілі, 1991. – Б. 73.
4. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 115.
5. Поливанов Е.Д. Образцы не-иранизованных (сингармонистических) говоров узбекского языка. Говор города Туркестана // Известия АН СССР, Сер. VII. – Л., 1929. – С. 518.
6. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962. – Б. 228-229; Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 54.
7. Йўлдошев Т. Тожикистон ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 21.
8. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. Тошкент: Фан, 1984. – Б. 126.

Denov qarluqlari shevasida fonetik jarayonlar

Turdialiyev Anvarbek,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
tayanch doktoranti

Annotatsiya. O‘zbek shevalari o‘zining murakkabligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turadi. 20-30-yillarda o‘zbek shevalarini o‘rganish uchun tamal toshi qo‘yilgan bo‘lsa, 50-yillarga kelib bu nuqta ayni cho‘qqisiga chiqqan davr hisoblanadi. Bu davrda o‘zbek shevalarini areal zonalarga ajratib o‘rganish boshlandi va shevalarni o‘rganishda yangi bir tadqiqotlarni yuzaga keltirdi. Shu davrgacha o‘rganilgan o‘zbek shevalar asosida o‘zbek shevalari dialekt zonalarga ajratildi va qayta tadqiq qilish boshlandi. Albatta, shevalar(til) bu ijtimoiy hodisa bo‘lganligi sababli davr nuqtayi nazaridan qayta o‘rganishni boshlar bu to‘g‘ri qaror hisoblanadi. Biz ushbu kichik tadqiqotimizda “Denov kichik dialekt zonasi”dagi ba’zi fonetik jarayonlarga to‘xtalamiz.

Kalit so‘zlar: assimilatsiya, dissimilatsiya, eliziya, metateza, spirantizatsiya, hodisa, jarayon.

Surxondaryo viloyati Denov tumani shevalari o‘zbek shevalari tarkibidagi o‘rganilmagan kichik areal zona[5:105] hisoblanadi. Denov tumani Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy va Sho‘rchi tumanlari bilan chegaradosh bo‘lib tumanda qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi

MUNDARIJA

So‘zboshi Azimov Inomjon	3
I SHU’BA. “DAVLAT TILI HAQIDA”GI QONUNNI HAYOTGA TATBIQ ETISH MASALALARI	
Til elning boridur... Eltazarov Jo‘liboy	4
O‘zbek tilida ish yuritish tizimi taraqqiyoti Bobojonov Farhod	16
“Davlat tili haqida”gi qonunni hayotga tatbiq etish masalalarida terminologiyaning tutgan o‘rni Ibatova Amira	21
Davlat tili muammolari yuzasidan ayrim mulohazalar Abdurahmanov Shavkatjon, Babaxanova Dilorom	29
II SHU’BA. MILLIY TERMINOLOGIYA MASALALARI	
“Devonu lug‘otit turk” da taom tayyorlash uchun xizmat qiladigan buyumlarni anglatuvchi leksik birliklar xususida Dadaboyev Hamidulla	33
Sistem tahlilning yangi qirralari Jo‘rayev Qudrat	39
Metod, metodika va metodologiya haqida Rasulov Ravshanxo‘ja	42
Terminologiya fani taraqqiyoti xususida mulohazalar Abdiyev Murodqosim	46
Murodqosim Abdiyev va o‘zbek milliy terminologiyasining ayrim masalalari Turobov Abdurayim	50
Kashtachilik terminlarining genetik asosi va tarixiy-etimologik tarkibiga oid Bahriddinova Bashorat, Bahodirova Gulruh	56
Ekvonimlar va ularning terminologik tizimga munosabati haqida Ermatov Ixtiyor	61
Dilin kaybolan kelimeleri Mehmet Özeren	70
Zullisonaynlik an’anasining paydo bo‘lish omillari Muhitdinova Badia	75

Shevadagi ayrim eskirgan ismlar tahlili Yunusova Madina	303
Qarluq lahjasi shevalarining o‘rganilishi haqida Qodirov Umarjon	307
Iqon shevasida o‘tgan zamon fe‘l shakllarining o‘ziga xos xususiyatlari Xidraliyeva Zoxira	312
Denov qarluqlari shevasida fonetik jarayonlar Turdialiyev Anvarbek	319
V SHU’BA. AMALIY VA TADQIQIY TILSHUNOSLIK MASALALARI	
Tilshunoslikning ayrim nazariy muammolari haqida Mirzayev Ibodulla	324
M.Koshg‘ariyning “Devoni lug‘oti-t-turk” asari va struktur-semantik tahlil masalalari Iskandarova Sharifa, Basoat Kimsanboyeva	327
Dialogik nutq va sukut Saidxonov Ma’murjon	333
Kompyuter va internet jargonining shakllanish xususiyatlari Nasrulloeva Nasiba	338
Affiksial pleonazmning yuzaga kelish sabablari haqida Jo‘raboyeva Gulrux, Shukriya Abdulboriyeva	344
Pretsedent matnlarda milliy- madaniy kod ifodasi Narziyeva Gulnoza	348
Vatanparvarlik ruhidagi she’riy matn ta’rifida lingvistik tahlil Boboyorov O‘rinboy	355
O‘zbek tilining ta’limiy korpusi Xudoyorova Nigora	361

“TERMINOLOGIYA VA DIALEKTOLOGIYANING ZAMONAVIY MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 22.09.2023.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 20,9. Shartli bosma taboq 21,6.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10